



UDK:1.124.5

E'tibor SARIYEVA,
Urganch innovatsion universitet o'qituvchisi
E-mail: etiborsariyeva@gmail.com

Dots., Q.Olloyorov taqrizi asosida

“ARDA XIVA” – TALABALARNI MA’NAVIIY-MA’RIFIY TARBIYALASHDA TARIX VA MA’NAVIIYAT UYG’UNLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Arda Xiva” turistik majmuasining pedagogik va tarbiyaviy salohiyati tahlil qilinadi. Talabalarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasida tarixiy-madaniy muhitdan foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi. Ayniqsa, Xiva shahri va uning yaqinidagi “Arda Xiva” majmuasi orqali yosh avlodda tarixiy xotira, milliy g’urur, estetik did va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish bo’yicha ilg’or tajriba va yondashuvlar tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: Arda Xiva, ma’naviy tarbiya, madaniy meros, tarixiy muhit, talaba tarbiyasi, pedagogik model, turizm va ta’lim, Xiva, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira.

“ARDA KHIVA” – THE HARMONY OF HISTORY AND CULTURE IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL UPBRINGING OF STUDENTS

Annotation

This article analyzes the pedagogical and educational potential of the “Arda Khiva” tourist complex. The possibilities of using the historical and cultural environment for the spiritual and educational upbringing of students are explored. Special attention is given to the formation of historical memory, national pride, aesthetic taste, and civic responsibility among the youth through the “Arda Khiva” complex and the city of Khiva.

Key words: Arda Khiva, spiritual upbringing, cultural heritage, historical environment, student upbringing, pedagogical model, tourism and education, Khiva, national values, historical memory.

«АРДА ХИВА» – СОГЛАСОВАННОСТЬ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ В ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье анализируется педагогический и воспитательный потенциал туристического комплекса «Арда Хива». Открываются возможности использования историко-культурной среды для воспитания студентов. Особенно акцентируется внимание на формировании исторической памяти, национальной гордости, эстетического вкуса и гражданской ответственности у молодежи через призму города Хива и его ближайшего комплекса «Арда Хива».

Ключевые слова: Арда Хива, духовное воспитание, культурное наследие, историческая среда, воспитание студентов, педагогическая модель, туризм и образование, Хива, национальные ценности, историческая память.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot tezkorligi davrida yosh avlodni ma’naviy barkamol, vatanparvar, tarixiy xotiraga ega shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlar ongida milliy g’urur, tarixiy merosga hurmat, madaniy qadriyatlarga sadoqat kabi fazilatlarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar, xususan, madaniy turizm imkoniyatlaridan foydalanish muhim omil hisoblanadi.

O’zbekiston qadimiy tarix, boy madaniyat va betakror me’moriy yodgorliklarga boy yurt sifatida turizm sohasi orqali nafaqat iqtisodiy, balki tarbiyaviy salohiyatga ham ega. Shu jihatdan, tarixiy shaharlardan biri bo’lmish Xiva o’zining bir nechta ming yillik tarixiga ega va yoshlar uchun jonli tarixiy darslik bo’lib xizmat qilmoqda. Xivaning har bir ko’chasi, har bir minorasi va darvozasi orqasida ajdodlar ma’naviy merosi, ilmiy tafakkuri va bunyodkorlik salohiyati mujassam [10].

Metodologiya. Ushbu maqola “Arda Xiva” turistik majmuasining pedagogik imkoniyatlarini o’rganish orqali talabalar ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini shakllantirishda

turizming o’mini aniqlashga qaratilgan. Maqolada tarixiy, pedagogik va sotsiologik yondashuvlar uyg’un holda qo’llanildi. Shuningdek, madaniy turizming ta’limiy va tarbiyaviy jihatlarini integratsiyasiga asoslangan zamonaviy pedagogik nazariyalar asos qilib olindi.

“Arda Xiva” orqali talabalar ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini shakllantirish pedagogik modeli

1. Modelning maqsadi: “Arda Xiva” turistik majmuasining tarixiy, madaniy va ma’naviy salohiyatidan foydalanib, talabalar ongida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy meros va vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish.

2. Modelning prinsiplari:

Turizmni ta’lim, tarbiya va ijtimoiy faoliyat bilan uzviy bog’lash;

Talabalarning interaktiv ishtiroki asosida o’quv jarayonini tashkil qilish;

Sayohat orqali o’rganish, tajribaviy bilish;

Talabalarning o’z kechinmalari, xulosalari orqali tarbiyaviy natijalarga erishish;

3. Modelning tarkibiy qismlari:

Bosqich	Faoliyat mazmuni	Pedagogik vositalar
Motivatsion bosqich	Talabalarni Xiva tarixi va “Arda Xiva” majmuasi haqida ma’lumotlar berish	Ma’ruzalar, videoroliklar, muzey fotolari
Tayyorlov bosqichi	Sayohatga tayyorgarlik, marshrut tuzish, tarbiyaviy maqsadlar belgilash	Seminarlari, guruhli ishlar
Amalga oshirish bosqichi	“Arda Xiva” majmuasiga amaliy tashrif, joylarda kuzatuv va muhokama	Ekskursiyalar, muhokama mashg’ulotlari
Refleksiya bosqichi	Sayohat yakuni bo’yicha fikr almashish, baholash, ijodiy ishlanmalar	Ese yozish, foto-ko’rgazmalar, baholash

Natijalar. “Arda Xiva” dagi qadimiyligni eslatuvchi me’moriy obidalar, ko’chalar, hunarmandchilik do’konlari va rekreatsion zonalar talabalarda sharqona estetik did, tarixiy go’zallikka nisbatan sezgirlik va madaniy xotirani shakllantirishda katta rol o’ynadi. Talabalar ushbu tajribalarni ma’naviy o’zgarish sifatida qayd etdilar. Majmuadagi sayohatlar, tarixiy personajlar bilan teatrlashtirilgan sahnalar, hunarmandlik ustaxonalari, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish orqali o’tkazilgan interaktiv mashg’ulotlar talabalar e’tiborini jalb qildi va tarbiyaviy ta’sir kuchaytirildi. Bu esa an’anaviy auditoriyadagi ma’ruzalar bilan solishtirganda yuqori samaradorlikni ko’rsatadi.

Sharq mutafakkirlari — Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy-falsafiy qarashlarini yoshlar qalbiga singdirish, ularning tafakkurida pozitiv dunyoqarashni shakllantirish uchun madaniy turizm imkoniyatlaridan foydalanish samarali metodlardan biridir. Ayniqsa, talaba-yoshlarni “Arda Xiva” majmuasiga olib borish, u yerdagi interaktiv ko’rgazmalar, tarixiy ekskursiyalar, teatrlashtirilgan sahna ko’rinishlari orqali yoshlar ajdodlar hayotini jonli tasavvur etishadi. Bu esa ularning tarixga, milliy qadriyatga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o’zgartiradi [4].

“Arda Xiva” majmuasi orqali madaniy turizmni yo’lga qo’yish, uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish — ajdodlar merosini yosh avlod ongiga singdirish, ularning pozitiv dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida alohida o’rin egallaydi.

“Arda Xiva” turistik majmuasi orqali talabalar ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi:

Maqsadli component: Tarixiy-madaniy muhitda shaxsiy axloqiy va fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirish; Tizimli component: Tarixiylik, interaktivlik, uyg’unlik, milliylik;

Usullar component: Ekskursiya, teatrlashtirilgan rollar, amaliy mashg’ulotlar, munozaralar;

Natija component: Tarixiy ong, madaniy sezgir, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish.

Ushbu natijalar asosida, “Arda Xiva” majmuasi nafaqat sayyohlik maskani, balki innovatsion tarbiyaviy makon sifatida talabalar ma’naviy shakllanishida katta salohiyatga ega ekanligini ko’rsatish mumkin [4].

Munozara. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, an’anaviy o’qitish usullari ko’pincha talabalarni faqat bilim olishga yo’naltiradi, biroq ularda o’zini o’rganish, tarixi va madaniyati bilan bog’liq chuqur hissiy aloqalar shakllanishiga unchalik yordam bermaydi. “Arda Xiva”da tashkil etilgan interaktiv mashg’ulotlar, teatrlashtirilgan o’yinlar, milliy san’at va hunarmandchilik bilan tanishtirish orqali talabalar ma’lumotlarni o’zlashtirish va o’z ichki dunyosini, estetik va ma’naviy tasavvurlarini rivojlantirish ko’nikmalariga ega bo’ladilar. Bu jarayonni takomillashtirish uchun pedagogik modellarni yangilash va innovatsion usullardan kengroq foydalanish zarur. Sayohatlarni tashkil qilish va tarixiy obidalar bilan tanishtirishda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga katta e’tibor berish lozim.

“Arda Xiva” madaniy-turistik majmuasi negizida o’tkaziladigan teatrlashtirilgan tarixiy sahna ko’rinishlari, milliy musiqa va raqs ansambllari chiqishlari, xalq amaliy san’at ko’rgazmalari kabi faoliyat turlari talabalar emotsional-intellektual rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Teatrlashtirilgan tarixiy sahna ko’rinishlari orqali talabalar Xiva xonligi davridagi ijtimoiy hayot, sarkardalik, diplomatik aloqalar, ilm-fan va san’at rivoji haqida jonli taassurotga ega bo’ladilar. Milliy musiqa va raqs ansambllari chiqishlari orqali talabalar o’z xalqining milliy qadriyatlarini tomosha qiladilar, raqslar va kuylar orqali turli hududlarga xos an’anaviy madaniyat turlarini tahlil qiladilar. Xalq amaliy

san’ati ustaxonalari (masalan, xorazmcha do’ppi tikish, gilam to’qish, yog’och o’ymakorligi yoki sopol buyumlar yasash) orqali talabalar madaniy merosni faqat kuzatuvchi emas, balki ijodiy ishtirokchi sifatida idrok etadilar. Bu amaliy faoliyatlar ularning milliy hunarmandchilik haqida bilimi, qadriyatlarga bo’lgan e’tibori va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, gilam to’qish ustaxonasida qatnashgan talabalar texnologik jarayonni o’rganish bilan birga ranglar uyg’unligi, naqshlar ma’nosi, milliy estetik qarashlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo’ladilar. “Arda Xiva” majmuasining joylashuvi, Xiva atrofidagi tabiiy manzaralar, G’ovik ko’li va uning tarixiy ahamiyati haqida o’rganish talabalar orasida ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Mazkur maskanda o’tkaziladigan davra suhbatlari, seminarlar, treninglar, konferensiyalar, bayram tadbirlari, anjumanlar, ko’rgazmalar va boshqa shakldagi faoliyatlar orqali yoshlarda ajdodlar merosi, va zamonaviy g’oyalar uyg’unligidagi milliy g’oya shakllanadi va milliy qadriyatlarga, an’analarga mehr-muhabbat hissi oshadi [6].

“Arda Xiva”da tashkil etilgan interaktiv madaniy-ma’rifiy dasturlar talabalar faolligini oshiradi, ularni milliy qadriyatlar bilan bog’laydi hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu esa turizm va ta’lim integratsiyasini amaliyotda samarali qo’llash imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

Tadqiqotdan kelib chiqib, “Arda Xiva” turistik majmuasining talabalar ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasiga bevosita ta’sir ko’rsata oladigan ajoyib maskan ekanligini ko’rish mumkin. Ushbu majmuada o’zining tarixiy va madaniy boyliklari, joylashuvi, tabiiy manzaralari bilan talabalar uchun katta tarbiyaviy imkoniyatlar yaratadi. “Arda Xiva”da tashkil etilgan sayohatlar, madaniy tadbirlar va interaktiv mashg’ulotlar talabalar orasida o’zlikni anglash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va estetik tasavvurlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, turistik majmuada orqali talabalar orasida ijtimoiy faollikni rivojlantirish, guruh ishlari orqali muloqot qilish va fikr almashish imkoniyatlari yaratiladi. “Arda Xiva”ning tabiiy muhitidan ham talabalar ma’naviy o’sishiga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi omil sifatida foydalanish mumkin. Ular tarixiy, madaniy va ekologik bilimlarini kengaytirish orqali, kelajakda jahon miqyosida muvaffaqiyatli va ma’naviy rivojlangan shaxslar bo’lishlariga ko’maklashish mumkin.

Tavsiyalar. “Arda Xiva” ni ta’lim jarayonlariga integratsiya qilishda innovatsion pedagogik usullarni qo’llash zarur. Interfaol va amaliy mashg’ulotlar, ekskursiyalar va tarixiy obidalar bilan bevosita aloqada bo’lish orqali talabalar o’zlikni anglash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va tarixga bo’lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu bilan birga, pedagogik jarayonlarga doimiy ravishda yangiliklar kiritish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak. Xususan, Xiva shahri va uning yaqinidagi “Arda Xiva” turistik majmuasida o’tkaziladigan ekskursiyalar ushbu yo’nalishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Masalan, Ichon qal’a hududidagi Ko’hna Ark, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta Minor kabi obidalar nafaqat estetik jihatdan o’quvchilarga zavq bag’ishlaydi, balki ularning har biri o’z zamonasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti haqida chuqur bilimlar manbaidir. G’ovik ko’li hududidagi ekologik-tarixiy marshrutda ishtirok etishi, ularni nafaqat tarixiy jarayonlar, balki atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish borasida ham fikr yuritishga undaydi.

Majmuadagi ta’lim jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, shu jumladan, turizm, tarix, madaniyat, ekologiya va iqtisodiyotni o’z ichiga olgan kurslarni tashkil etish, talabalar uchun yangi ilmiy imkoniyatlar yaratadi.

“Arda Xiva” turistik majmuasi nafaqat sayyohlar uchun mo’ljallangan joy, balki talabalar ma’naviy-

ma'rifiy tarbiyasini kuchaytirish uchun zarur pedagogik vosita bo'lishi mumkin. Bu majmua orqali talabalarning o'z tarixini, madaniyatini, tabiiy boyliklarini yanada chuqurroq anglashlariga ko'maklashish mumkin. Yana bir bor ta'kidlash

joizki, bunday imkoniyatlar faqat tashriflar bilan cheklanmasdan, ta'lim jarayoniga joriy etilishi va uzluksiz rivojlanishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston – xalqimizni buyuk kelajak sari boshlaydi", T.: "O'zbekiston", 2020.
3. Xorazm viloyati hokimligi rasmiy manbalari — www.khiva.uz (2024).
4. G'afurov B. "Turizming pedagogik imkoniyatlari", T.: Fan, 2019.
5. UNESCO. "Cultural tourism and youth: World Heritage and identity", Paris, 2017.
6. Qodirov A., "Ma'naviyat va madaniyat: tarbiya omili sifatida", Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
7. Mo'minov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot. O'zbekiston matbuoti 2007. y №5.
8. Xadjayev I.A., Abdullayev Sh.D., Matyazova N.S.. Komil inson tarbiyasi: Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi.
9. "Internetdagi tahdidlardan himoya" Muhammad Amin Yahyo, "Movoraunnahr" 2016 yil, To'ldirilgan qayta nashr.
10. G'ofurjon Shodiyev. Ma'naviyat va yoshlar.
11. Azamat Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadryatlar